



## MEN DINIY EKSTREMIZM VA TERRORIZMNI QANDAY TUSHUNAMAN

Aralov Jahongir

Tarix fakulteti 322.20guruh

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8137482>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 30-June 2023 yil

Ma'qullandi: 06-July 2023 yil

Nashr qilindi: 12-July 2023 yil

### KEY WORDS

konstitutsiya, qonunlar, jinoyat kodeksi, ekstremizm, javobgarlik, ta'qiqlash, jinoiy uyushma, jinoyatda tashkilotchi, rahbar.

### ABSTRACT

*Mazkur maqola O'zbekiston Respublikasining qonunlari va jinoyat kodeksidagi ekstremizmga qarshi kurashishga oid normalarni ilmiy nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilishga bag'ishlangan bo'lib, undamiliy qonunchilikni yanada takomillashtirish hamda halqaro hamkorlikni yanada kuchaytirish masalalari ilgari surilgan. Shuningdek diniy ekstremizm va terrorizmning mohiyati tushuntirib berilgan.*

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 1-moddasida "O'zbekiston –suveren demokratik respublika" deb e'tirof etilgan. Bosh Qomusimizning 17-moddasida esa "O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to'la huquqli sub'ektidir. Uning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik qoidalariga va xalqaro huquqning umumetirof etilgan boshqa qoidalari va normalariga asoslanadi"<sup>2</sup>, deya belgilab qo'yilgan.

### ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekistonda jinoyatlarning oldini olish yoki ularga qarshi kurashda nafaqat huquqni muhofaza qiluvchi organlarning sa'y-harakati, shu bilan bir qatorda jamoatchilikning, ayniqsa, har bir mahallaning (mahallar soni 10 mingda oshiq) imkoniyatidan tizimli foydalanilayotganligi samarali kechmoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, o'tgan yil davomida ayrim mahallalarda birorta ham jinoyat sodir etilmaganligining sababi, bu hududda yil davomida profilaktika inspektorlari jinoyatlarni oldi olishda tegishli tuzilmalar bilan hamkorlikda qator tadbirlarni amalga oshirganliklari ijobiy natija **berganidan dalolatdir**.. Fikrimizcha, bu yo'nalishdagi O'zbekiston tajribasini o'rganish rossiyalik olimlar uchun jinoyatchilikka qarshi kurashning yangi qirralarini kashf etishga ko'maklashishi shubhasizdir.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Biz olib borgan izlanishlar va ilmiy-nazariy manbalardagi tahlillarga ko'ra, ekstremistik faoliyat bilan shug'ullanish o'zining uzoq tarixiy ildizlariga ega bo'lib, bu o'tgan yoki hozirgi asr muammosi emas.

Qator ensiklopediyalarda "**ekstremizm – keskin fikr va choralarni yoqlash, fikr va choralarga tarafdorlik**" degan ma'noni anglatishi qayd etilgan. Yuridik manbalarda

**qayd etilishicha**, ekstremistik guruh yoki jinoiy uyushmalar ilgari surayotgan har qanday harakat zamirida demokratiyaga asoslangan huquqiy davlatni kuch ishlatib, keskin choralar ko'rish orqali yo'qqa chiqarib, amaldagi hokimiyatni qo'lga olish, jamiyatda keskin qarama-qarshiliklarni keltirib chiqarish bilan bog'liq jamoat xavfsizligiga qarshi qaratilgan jinoiy qilmishlar **mujassamlashgan**. O'zbekiston misolida aytganda, asrning o'tgan ikki o'n yilligi davomida din niqobi ostidagi ekstremistik kuchlar tomonidan "xalifalikni tuzish"ga urinish kuzatilmoqda, ular hozirgi davlatdagi musulmonlar jamoalari o'zlarining islomiy xususiyatini yo'qotib, ko'pchilik holatlarda g'arbga taqlid qilishi kuchaygan, degan da'voni ilgari surmoqdalar. Mamlakatda islom qoidalarini to'liq o'rnatish, hokimiyatga haqiqiy musulmonlar kelishi uchun hech ikkilanmasdan faol urush harakatlarini amalga oshirib, "kuch ishlatish" zarur ekanini kishilar, jumladan, yoshlar ongiga sindirishdan tiyilmayptilar. Shu boisdan bunday jinoiy qilmishlar mohiyat jihatdan ekstremistik xususiyatga ega, deya baholanadi.

Ma'lumotlarga ko'ra, bugun dunyoda 500 ga yaqin terrorchilik tashkiloti faoliyat ko'rsatmoqda. Ularning 80 foizi islom niqobi ostida faoliyat yuritadi. Ular qatoriga "ISHID (Iroq va Shom islom davlati)", "Jabha an-Nusra", "Ansaru ash-Sham" (Suriya), "al-Qoida", "al-Jihad al-Islomiy", "at-Takfir va-l-Hijra" (Misr), "Abu Sayyaf" (Filippin), "Ozod Achex", "Lashkari jihad" (Indoneziya), "Qurolli islomiy harakat" (Jazoir), "Boko haram" (Nigeriya), "Islom jihodi uyushmasi", "O'zbekiston islomiy harakati" Tolbion (Afg'oniston, Pokiston) kabi tashkilotlarni kiritish mumkin.

Mutaxassislarining fikricha hozirda 100 mingdan ortiq ekstremizmning turli ko'rinishlarini o'zida tashuvchi g'oyalar targ'iboti bilan shug'ullanuvchi saytlar faoliyat olib bormoqda. Internet orqali suhbat olib borish jarayonida yoshlarga kufr diyori, hijrat, jihad, shahidlik, xalifalikni tiklash kabi g'oyalar singdirilib, ular turli to'qnashuv va nizo o'choqlariga jalb qilinmoqda. Muayyan siyosiy kuchlarning nog'orasiga o'ynayotgan diniy- ekstremistik va terrorchi oqimlar tomonidan u yerlarda amaliyotni o'tab kelgan aqidaparast, diydasi qotgan, mustaqil fikrlashdan mahrum, rahnamolarining har qanday buyruqlarini qonun deb biluvchi zombi jangarilardan tinch mintaqalarda ham turli nizolar va beqarorliklarni keltirib chiqarishda foydalanish maqsadi bugun ko'pchilikka ayon haqiqatdir.

Ayniqsa, "jihadchi" guruhlar o'z safiga yangi shaxslarni jalb etishda internet va ijtimoiy tarmoqlardan keng foydalanmoqda. Turli internet saytlari, "Odnoklasnik", "Twitter" kabi ijtimoiy saytlarda tashkil etilgan turli nomlardagi forum va guruhlar, "You Tube" portalidan keng foydalanilmoqda. Mazkur guruhlarining targ'ibotchilari ko'p vaqtini internetda o'tkazuvchi, vaqtincha ishsiz, xorijda pul topish ilinjida yurgan va ijtimoiy holatdan norozi shaxslarni o'z saflariga qo'shish maqsadida ular bilan go'yoki "musulmonlarning azoblanayotgani" suhbatlar olib boradilar.

Darhaqiqat hozirgi kunga kelib diniy-ekstremistik tashkilotlar keng tarmoqli tizimga aylanib ulgurdi. Bu chuqur o'ylangan strategiyaning bir qismidir. Avvalo, barcha ekstremistik tashkilotlar bir tadqiqot markazlari, ta'bir joiz bo'lsa, "g'oyaviy laboratoriya"lar mahsuli ekanini alohida qayd etishimiz lozim.

Birinchi guruh qatoriga "Tablig'chilar" jamoasi tashkilotini kiritish mumkin. Ikkinchi guruhlar qatoriga "Nurchilar", "Hizbut-tahrir" kabi diniy-ekstremistik tashkilotlarni kiritish mumkin. Uchinchi guruhga esa barcha jihodiy, soxta "salafiy" jamoalar kiradi.

Diniy-ekstremistik ruhdagi terrorchi tashkilotlarning strategik maqsadlari, avvalo,

go'yoki, shariatga asoslangan davlat tuzish bo'lib, bu bir necha bosqichda amalga oshirilishi rejalashtirilgan.

Birinchi bosqichda aholini keng ko'lamda "islomiyashtirish" nazarda tutiladi. Bunda, avvalo, diniy ilmi sayoz bo'lgan kishilar orasida islomning farzlariga amal qilish lozimligi, bu ishlarni bajarmaganlar musulmonchilikdan chiqishi uqtiriladi. Shu bilan birga, yashirin "hujralar" tuzish va ularda o'qiyotganlarga, diniy ta'lim niqobi ostida, o'z qarashlarini singdirish ishlari olib boriladi. Bir qarashda bunday "da'vat"dan hech qanday zarar yo'qdek ko'rinishi mumkin, aslida esa bu "chuqur o'ylangan strategiya"ning bir qismidir.

Ikkinchi bosqichda endi "islomiyashtirilgan" aholida hukumat, mavjud konstitutsiyaviy tuzum, rasmiy diniy tuzilmalar va ulamolarga nisbatan norozilik kayfiyatini uyg'otish va shu orqali ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirish ko'zlanadi. Unda aholi orasida "imonli" va "imonsiz", "musulmon" va "kofir", "islom diyori" va "kufr diyori" kabi tushunchalarni keng yoyish, diniy-ekstremistik ruhdagi varaqa, adabiyot, video va audio tasmlarni tarqatish orqali dinlararo va millatlararo munosabatlarni keskinlashtirish asosiy maqsad hisoblanadi.

### **XULOSA VA MUNOZARA**

Xulosa qilib aytganda Qonun va Jinoyat kodeksidagi moddalar tahlili, ekstremistik faoliyatga qarshi kurashish va ekstremistni jinoyat javobgarlikka tortish bilan bog'liq qonunchilikdagi bo'shliqni **to'ldirish hamda** mavzusiga oid yuridik manbalardagi olimlarning fikr-mulohazalari, xulosalarini umumlashtiruvchi qator tadqiqotlarni amalga oshirish zarur ekanligidan darak beradi. Ayniqsa, mazkur yo'nalish bo'yicha xalqaro hamkorlikdagi kamchiliklarni bartaraf qilish undanda muhim. Yuqorida qayd etilganlardan kelib chiqqan holda, shuningdek, yurtimizda ijtimoiy-ma'naviy va diniy vaziyatning barqarorligini ta'minlash, turli diniy ekstremistik oqimlarga qarshi kurashni yanada faollashtirish hamda yoshlarni yot g'oyalarga qo'shilib ketishining oldini olish maqsadida diniy soha xodimlari quyidagilarga ahamiyat qaratishi zarur hisoblanadi:

➤ joylarda fuqarolar ichida din bilan bog'liq jarayonlardan doimiy ravishda boxabar bo'lib yurish, vaziyatning barqarorligini ta'minlash bo'yicha mutasaddi tashkilot va idoralar bilan amaliy hamkorlikni yanada mustahkamlash;

➤ o'quv muassasalari, mahalla yig'inlari, korxonalar va tashkilotlarda yoshlarni dunyoviylik, vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan amaliy chora-tadbirlar va ma'naviy-ma'rifiy ishlarning ta'sirchanligini oshirish;

➤ ta'lim muassasalarida «Tinchlik eng oliy ne'mat», «Islomda ekstremizm va terrorizmga o'rin yo'q», «Diniy-ekstremistik oqimlar – davlat va jamiyatga tahdid» kabi mavzularda davra suhbatlari va seminar-mashg'ulotlar son va sifatini oshirish, tadbirlarda diniy ekstremistik va terroristik guruhlarining asl qiyofasini fosh etuvchi, jinoyatlari aks etgan videotasvirlardan foydalanish;

joylarda masjid va alohida uylarda (hujralarda) noqonuniy diniy ta'lim berish holatlariga barham berish yuzasidan tushuntirish ishlari tizimli o'tkazish lozim.

### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.-Toshkent "O'zbekiston".-2023.
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi <https://www.lex.uz/acts/111453>
3. A.U.Anorboyev. Kiberjinoyatchilik, unga qarshi kurashish muammolari va

kiberxavfsizlikni ta'minlash istiqbollari; monografiya, toshkent 2020 y

4. Ehtiyot bo'ling, ijtimoiy tarmoqlarda firibgarlik \ http://  
www.qoshrabot.uz/oz/node/661

5. Sh.M.Mirziyoyevni O'zLDPning X qurultoyida so'zlagan nutqi.  
<https://uznews.uz/posts/2030-iilgaca-savkat-mirziyoev>

6. Sh.M.Mirziyoyevni Oliy Majlisga Murojaatnomasi. <https://uza.uz>, 30.12.2020



INNOVATIVE  
ACADEMY